

## O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK: TAHLIL, MUAMMO, YeChIM

S.S.Zokirov<sup>1</sup>

1. O'zbekiston milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston.

**Correspondence:** Zokirov Sayidfozil Sayidakbarovich, National University of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan.

**e-mail:** zakirovss@mail.ru

**Received:** 29 July 2025; **Accepted:** 25 August 2025; **Published:** 27 September 2025.

**Abstract.** Maqolada so'nggi 30 yil mobaynida O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari baholangan. Bunda sohani rivojlantirish maqsadida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari, buning natijasida ro'y bergan ijobiy o'zgarishlar o'rganilgan. Shu bilan birga, iqtisodiyotga faol ma'muriy aralashuvlar bozor mexanizmlarining normal faoliyati yuritishiga va iqtisodiy islohotlar samaradorligiga putur yetkazganligi tahlil qilingan.

**Keywords.** kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, soliq stavkasi, erkin konvertatsiya, ma'muriy aralashuv, bozor mexanizmlari, aholi farovonligi.

XX as oxiri – XXI asr boshlarida O'zbekistonda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, unga muayyan iqtisodiy erkinliklar berish bilan tavsiflandi. Biroq, ayni shu davrda, erkin konvertatsiya qilishning cheklanganligi, ayrim qishloq xo'jaligi mahsulotlari davlat tomonidan majburiy xarid qilinganligi, ya'ni davlatning iqtisodiy jarayonlarga faol ma'muriy aralashuvi mamlakatda xususiy tadbirkorlikning keng quloch yoyishiga to'sqinlik ham qildi.

1995-2016 yillarda kichik biznes sub'ektlarining mamlakatimizda yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining daromadlari va farovonligini oshirish omili sifatidagi natijalari salmoqli bo'ldi.

Bu davrda korxona va muassasalar foydasidan olinadigan soliq stavkasining salmoqli darajada pasaytirilishi ijobiy omil bo'lib xizmat qildi. Xususan, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 1995-2016 yillar mobaynida 38 foizdan 7,5 foizga tushirildi [1]. Soliq stavkasining bu darajada pasayishi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish imkonini berdi. Bu narsa aylanma mablag'larni ko'paytirish, ishlab chiqarish hajmini oshirish, mahsulot va xizmatlar eksportini kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish uchun sharoit yaratdi. Soliq sohasida olib borilayotgan izchil islohotlar soliq to'lashdan bosh tortish va daromadlarni yashirish darajasini sezilarli darajada pasaytirdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash choralari tufayli 2010-2015 yillarda ro'yxatga olingan (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) sub'ektlar soni 193 ming 800 tadan qariyb 226 mingtaga yetdi. Mahsulot va xizmatlarning yalpi ichki mahsulot hajmidagi ulushi keyingi o'n yilda 1,8 barobarga oshdi.

Davlat rahbarining 2015 yil 15 maydagi "Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [2] farmoni tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish yo'lidagi mavjud to'siqlarga barham berishga qaratilgan edi.

Shu asosda mikrofirmalar, kichik korxona va fermer xo'jaliklari faoliyatiga oid barcha tekshiruvlar rejali tartibda nazorat organlari tomonidan to'rt yilda bir marta amalga oshirish yo'lga qo'yildi. Boshqa xo'jalik sub'ektlarida faqat O'zbekiston Respublikasi Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi respublika kengashi qaroriga asosan uch yilda bir martadan ko'p bo'lmagan tartibda amalga oshiriladigan, moliya-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan rejali tekshiruvlar

o'tkazish muddati 10 kalendar kunidan oshmaydigan bo'ldi [3].

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimi joriy etildi. Xususan, 2016 yildan boshlab iqtisodiyot tarmoqlarida xizmat ko'rsatuvchi mikrofirm va kichik korxonalarda yagona soliq to'lovining stavkasi 5 foizga tushirildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga davlat tomonidan e'tibor berilishi hamda qo'llab-quvvatlanishi tufayli uning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi ham yildan-yilga ortib bordi [4]. Xususan, 2000 yilda yalpi ichki mahsulotning 31,0 foizi iqtisodiyotning faol rivojlanib borayotgan ushbu sektori ulushiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2016 yilda bu ko'rsatkich 66,8 foizni tashkil etdi [5].

2010-2016 yillarda kichik tadbirkorlik sub'ektlarining jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari (xizmatlari)dagi ulushi 26,6 dan 45,3 foizga, qurilish ishlaridagi ulushi 52,5 dan 66,9 foizga, jami mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) eksportidagi ulushi 13,7 dan 26,0 foizga, jami importdagi ulushi 35,8 dan 46,8 foizga o'sdi (1-jadval).

# 1-jadval

## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha 2010-2016 yillardagi o'sish dinamikasi [5]

| Ko'rsatkichlar nomi                                                                                                                         | 2010 yil | 2011 yil | 2012 yil | 2013 yil | 2014 yil | 2015 yil | 2016 yil |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------|
| Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, %                                                                      | 60,8     | 60,8     | 60,9     | 61,9     | 64,6     | 66,8     | 67,2     |
| Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari (xizmatlari) dagi ulushi, %                                 | 26,6     | 28,6     | 29,7     | 33,0     | 36,8     | 40,6     | 45,3     |
| Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlarini (xizmatlarini) ishlab chiqarishdagi hajmi, trln. so'm | 31,9     | 46,7     | 56,9     | 67,5     | 83,0     | 101,2    | 118,0    |
| Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining jami bandlikdagi ulushi, %                                                                              | 74,3     | 75,1     | 75,6     | 76,7     | 77,6     | 77,9     | 78,2     |
| Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda band bo'lganlar soni, mln. kishi                                                                    | 8,6      | 8,9      | 9,2      | 9,6      | 9,9      | 10,2     | 10,5     |
| Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi, %                                                                     | 52,5     | 67,6     | 70,0     | 70,0     | 69,5     | 66,7     | 66,9     |
| Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining jami mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) eksportidagi ulushi, %                                             | 13,7     | 18,8     | 14,0     | 26,2     | 27,0     | 27,0     | 26,0     |
| Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining jami mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) importdagi ulushi, %                                               | 35,8     | 34,3     | 38,6     | 42,4     | 45,4     | 44,5     | 46,8     |

Tadqiq etilayotgan davrda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash tadbirlari ham kuchaydi. Xususan, 2012 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun 5622,8 mlrd.so'm kredit mablag'lari ajratilgan bo'lsa, 2016 yilda bu ko'rsatkich 42579,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rni asta-sekin kengayib bordi. Uning eksport hajmidagi ulushi 2010 yilda 13,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2016 yilda yilda 26,0 foizni tashkil etdi. 2010-2016 yillarda uning jami eksport hajmidagi ulushi 35,8 dan 46,8 foizgacha o'sdi.

Ta'kidlash joizki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan eksport qilingan mahsulotlarning salmoqli qismi chuqur qayta ishlanmagan va yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lmagan xom-ashyolardan iborat bo'lgan. Bunday vaziyat mamlakatda eksportga yuqori texnologiyali mahsulotlarni sotishni yo'naltirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqishni talab etardi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining eksport salohiyatini oshirish maqsadida Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan

beg'araz subsidiya va kompensatsiyalar taqdim etilgan.

2010 yilda mamlakatimizda jami 15164 dan ortiq yangi ish o'rinlari tashkil etilgan bo'lsa, shundan 8643 tasi yoki 57,0 foizi kichik biznes sohasiga to'g'ri kelgan. 2015 yilda esa 24 389 dan ortiq yangi ish o'rinlari yaratilgan bo'lsa, shundan 10170 tasi yoki 41,7 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari hissasiga to'g'ri keldi. 2010-2016 yillarda kichik tadbirkorlik sub'ektlarining jami bandlikdagi salmog'i 74,3 foizdan 78,2 foizgacha oshdi. Bu sohadagi eng yuqori ko'rsatkichlar Samarqand (84,5%), Andijon (84,4%), Namangan (83,3%) viloyatlarida kuzatilgan bo'lsa, eng quyi natija Toshkent shahri (56,6%) hissasiga to'g'ri keldi [5].

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, kichik biznes sub'ektlari statistika organlariga yirik korxonalar kabi mukammal hisobot topshirmaganlar. Ular taqdim etgan ma'lumotlar keyinchalik umumlashtirish chog'ida qayta hisob-kitob qilindi. Ayni shu narsa qo'shib yozish, ma'lumotlarning asl holatini buzib ko'rsatishga olib kelardi. O'z vaqtida birinchi Prezident Islom Karimov har yili o'rtacha bir million yangi ish o'rni yaratilishi haqidagi statistik ma'lumotlarga mutlaqo ishonmasligini aytgan edi.

1990-yillarda O'zbekistonda ikkita muhim muammo hal qilinishi zarur edi:

- bozor institutlari va mexanizmlarini shakllantirish, xususiy tadbirkorlik va bozor raqobatini rivojlantirish orqali bozor iqtisodiyotiga o'tish;
- barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash.

Bu vazifalarning yechimi kelgusida rivojlanish va aholi farovonligi bo'yicha taraqqiy etgan davlatlarga yetib olish imkonini berardi. Biroq iqtisodiyotga ma'muriy aralashuv yo'li bilan jadallashtirilgan sanoatlashtirish siyosati tufayli bu muammolarning birortasi ham hal etilmadi.

Bozor islohotlari amalda muzlatildi. Bu narsa, ayniqsa quyidagi yo'nalishlarda yaqqol namoyon bo'ldi:

- davlatning iqtisodiy jarayonlarga faol ma'muriy aralashuvi bozor mexanizmlariga zid bo'lib chiqdi, bozor raqobatini yo'q qildi, tijorat banklarining samarali sektorini shakllantirishga imkon bermadi;
- soliq yukining yuqoriligi hamda turli turdagi soliq imtiyozlarining keng ko'lamda taqdim etilishi raqobatbardosh xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga to'sqinlik qildi;
- import o'rnini bosish va proteksionizm ham biznes raqobatdoshligining zaiflashishiga va raqobatni yo'q qilishga yordam berdi;
- bozor mexanizmlarining normal ishlashiga to'g'ri kelmaydigan bozorga qarshi institutlar shakllantirildi (erkin konvertatsiya qilishni cheklash, ayrim qishloq xo'jaligi ekinlarini davlat tomonidan majburiy xarid qilish, korxonalar ishlariga ma'muriy aralashish va boshqalar).

Natijada o'ta yomon investitsiya muhiti yuzaga keldi va bu mamlakatga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va zamonaviy texnologiyalarni jalb qilishni sezilarli darajada cheklab qo'ydi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi bo'yicha O'zbekiston dunyoning ko'pgina mamlakatlaridan orqada qoldi.

1995-2016 yillarda mamlakatimizda sanoat siyosati faol olib borildi. Biroq bu davrda sarmoya uchun xarajatlar ancha yuqori bo'lganiga qaramay, ularning samaradorligi juda past bo'ldi. Nima uchun?

Birinchidan, odatda sarmoya kiritishga oid qarorlar amalda mansabdor shaxslar tomonidan va bozor tamoyillariga amal qilinmagan holda qabul qilindi. Bunda avvalo, rasmiylar, xususiy tadbirkorlardan farqli o'laroq o'zlarining emas, davlat pullarini tasarruf etganlar, qolaversa, investitsiya loyihalari barbod bo'lgan yoki muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda ham ular moliyaviy javobgarlikka tortilmaganlar. Shu bois davlat investitsiya loyihalari odatda xususiy sektor loyihalariga qaraganda samarasiz. Bundan tashqari, davlat loyihalarida korrupsiya nihoyatda gullab-yashnagan.

Ikkinchidan, ko'p sonli imtiyozlar va cheklovlar o'zining aks ta'sirini ko'rsatdi. Sarmoyadorlar uzoq muddatli foyda haqida o'ylash o'rniga, taqdim etilgan imtiyozlardan qisqa muddatli foyda olish va raqobatni cheklash orqali bozorlarni egallashga ko'proq harakat qildilar. Masalan, sarmoyador daromadni asosan ishlab chiqarishga qo'yilgan sarmoyalardan emas, balki imtiyozli konvertatsiya

qilishdan olgan. Natijada, sotib olingan uskuna sifati va undan foydalanish imkoniyatlari "sarmoyador"ni umuman tashvishga solmagan. U soxta kompaniyalar orqali hech kimga keraksiz jihozlarni "tiyinlar"ga sotib olib, keyin ularni ma'muriy bosimlar orqali quyi tashkilotlarga yuqori narxlarda sotib yuborardi. Va bu bitim uchun u imtiyozli konvertatsiya ham olardi. Shunday qilib, bunday «sarmoyalar»dan keladigan daromad juda past yoki nolga teng bo'lardi [6].

Uchinchidan, moliya bozorlari va raqobatning taraqqiy etmaganligi investitsiya loyihalarini ularning samaradorligi ustidan bozor nazoratidan mahrum qildi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat samarasiz biznes loyihalarini elakdan o'tkazmaydi, tadbirkorlarni doimiy ravishda o'z faoliyatini takomillashtirishga majbur qiladi. Samaradorlikni qo'shimcha nazorat qilish moliya bozorlari tomonidan amalga oshiriladi: zero, banklar va xususiy sarmoyadorlar moliyaviy resurslarini faqatgina o'z qobiliyatlarini namoyish etgan va loyihalari afzalliklarini isbotlagan tadbirkorlarga taqdim etadilar.

Bozor munosabatlari, xususiy tadbirkorlik va raqobatning yetarli darajada rivojlanmaganligi, shuningdek, bozor iqtisodiyoti tizimining siyosiy-huquqiy tizimi shakllanmaganligi bois mamlakat iqtisodiyoti innovatsiyalarni yaxshi qabul qila olmadi, bu esa raqobatbardosh ishlab chiqarishlarni barqaror rivojlantirish imkonini bermadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

- [1] <https://old.uzavtoyul.uz/ru/post/ozbekistonda-foydadan-olinadigan-soliq-stavkasi-19952016yillarda-38-foizdan-75-foizga-tushirildi.html>
- [2] O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 15 maydagi "Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://www.lex.uz/acts/2647219>
- [3] <https://old.uzavtoyul.uz/ru/post/ozbekistonda-foydadan-olinadigan-soliq-stavkasi-19952016yillarda-38-foizdan-75-foizga-tushirildi.html>
- [4] X.D.Xujakulov. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishining statistik tahlili. [iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/10\\_Xujakulov.pdf](http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/10_Xujakulov.pdf)
- [5] <https://stat.uz/>
- [6] Yu. Yusupov. Uzbekskeya ekonomicheskaya model: mify i realnost. <https://anhor.uz/society/uzbekskeya-ekonomicheskaya-modely-mifi-i-realnosty/>